



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil 17 - fevral

VI-50-19-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hamda 2022-yil fevral oyida o'tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorini belgilash bo'yicha taklifni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 126-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 14-yanvardagi 03/03-05-32/100-sonli ko'rsatma xatiga asosan, Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashining oltinchi chaqiriq elliginchi sessiyasi

QAROR QILADI

1. Shahar hokimligi moliya bo'limi mudiri F.Sadriddinovning 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil fevral oyida o'tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget

jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklif 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar, ya’ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari hamda tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumotlar 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. 2021-yilda o‘tkazilgan “Tashabbusli budjet” jarayoni yakunlariga ko‘ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg‘armaga qayta tiklash miqdori to‘g‘risidagi ma’lumot 3-ilovaga asosan tasdiqlansin.

5. Shahar hokimligi moliya bo‘limi mudiri (F.Sadriddinov), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Ro‘ziyev)lar 2022-yil fevral oyida o‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budjet jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilangan tartibda jamg‘armaga shakllantirish uchun yo‘naltirsin.

6. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilsin va ushbu mablag‘larning boshqa maqsadlarga ishlatilishi ta’qiqlansin.

7. Shahar hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Nosirov) jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlar uchun nazarda tutilayotgan mablag‘lar miqdorini “Ochiq budjet” axborot portali hamda shahardagi mavjud ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka yetkazish vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Gadayev), shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Sayipov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



G. Alimova

Халқ депутатлари Каттақўрғон шаҳар Кенгашининг
2022 йил 17 февралдаги
VI-50-19-7-106-К/22-сон қарорига
1-илова

2022-йил феврал ойида о‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklifni tasdiqlash to‘g‘risida

MA'LUMOT

(ming.so‘mda)

№	2021-yil 3-chorak DROBQ hisobidan o‘tkazilgan 30 foiz mablag‘ miqdori	2021-yilda jamg‘armadagi yo‘naltirilmagan qoldiq summasi	TB jarayoni yakunlariga ko‘ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘ bilan shartnomaga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg‘armaga qayta tiklash miqdori	2022-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilishi lozim bo‘lgan 30 foiz mablag‘ miqdori	2022-yil uchun shahar budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining jami 5 foizi miqdoridagi mablag‘ning yarimidan kam bo‘lmagan qismi		Jami fevral oyida o‘tkazilishi kutilayotgan tashabbusli budget jarayoni uchun jamg‘armaga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori
					Jami 5 foiz	shundan fevral oyiga	
1	-	823 300	12 000	568 000	5 456 218	2 728 109	4 131 409

Халқ депутатлари Каттакўрғон
шаҳар Кенгашининг
2022 йил 17 февралдаги
VI-50-19-7-106-К/22-сон қарорига
2-илова

Kattaqo'rg'on shahrida tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

Kattaqo'rg'on shahar

yanvar 2022-yil

1-jadval

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming. so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	-
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar	2 201 000
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar	1 365 000
3.1	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	1 365 000
3.2	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	-
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	836 000

2-jadval

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar (ming. so'm)
1	Hududiy ichki yo'llar umumiy uzunligi	8	umumiy uzunligi	2,48 km	1 171 000
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	149 000
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash soni		soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash soni		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash umumiy	1	umumiy uzunligi	0,3 km	45 000
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar		soni		
	JAMI	11		2	1 365 000

Халқ депутатлари Каттақўрғон шаҳар Кенгашининг
2022 йил 17 февралдаги
VI-50-19-7-106-К/22-сон қарорига
3-илова

2021-yilda o'tkazilgan "Tashabbusli budjet" jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori to'g'risidagi ma'lumot

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlarning soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)					
			onlayn ovozlari	oflayn ovozlari	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar (iqtisod qilingan mablag'lar)
1	1080300013	156				22-son maktabgacha ta'lim tashkilotiga mebel jihozlari sotib olish	4017228601840 67091100251002	50 000	50 000	50 000	50 000	-
2	1080300015	140				11-son maktabgacha ta'lim tashkilotiga mebel jihozlari sotib olish	4017228601840 67091100251001	100 000	99 000	99 000	99 000	1 000
3	1080300029	142				"Zarifobod" MFY Semurg' ko'chasida suv quvurini ta'mirlash	4017228601840 67011204018001	45 000	45 000	45 000	45 000	-
4	1080300034	204				"Damariq" MFY Tegirmon boshi 2-o'tar ko'chasini asfaltlashtirish	4017228601840 67045201110003	225 000	222 000	222 000	222 000	3 000
5	1080300036	226				"Noqis" MFY Mo'nis ko'chasini asfaltlashtirish	4017228601840 67045201110002	90 000	89 000	89 000	89 000	1 000
6	1080300033	102				"Damariq" MFY Xolis ko'chasini asfaltlashtirish	4017228601840 67045201110006	99 000	98 000	98 000	98 000	1 000

7	1080300052	79				"Oq-oltin" MFY Madrasa ko'chasining ta'mirtalab qismini asfaltlash hamda lotok yotqizish	4017228601840 67045201110001	160 000	157 000	157 000	157 000	3 000
8	1080300089	105				"Nurobod" MFY Konchilar ko'chasiga asfalt yotqizish	4017228601840 67045201110005	195 700	195 000	195 000	195 000	700
9	1080300038	121				"Mehrjon" MFY Temur Malik ko'chasini asfaltlashtirish	4017228601840 67045201110004	88 000	87 000	87 000	87 000	1 000
10	1080300035	100				"Xaydarchaman" MFY Fazogir ko'chasini asfaltlashtirish	4017228601840 67045201110007	125 000	124 000	124 000	124 000	1 000
11	1080300048	71				"Kattaqo'rg'on" MFY Madaniyat ko'chasini asfalt qismini ta'mirlash.	4017228601840 67045201110008	200 000	199 000	199 000	199 000	1 000
Jami:								1 377 700	1 365 000	1 365 000	1 365 000	12 700